

TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA MILLIY MA'NAVIYAT VA IJTIMOY-HISSIY TA'LIMNING INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19207536>

Rahmatov Yusufbek Fozilovich

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi

Tel: 90-303-18-62

yusufbekrahmatov8@gmail.com

Usmonova Maftuna Abdilhay qizi

QDU 2-kurs magistranti

Tel: 91-150-73-56

usmonovam260@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bilimli, balki ruhiy baquvvat va jamiyatga moslashgan shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri — o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda milliy ma'naviyat va ijtimoiy-hissiy ta'limning (SEL) o'zaro integratsiyasi masalalari yoritilgan. Milliy qadriyatlar va zamonaviy psixologik yondashuvlarning uyg'unligi o'quvchilarning hissiy intellektini oshirish, ularda vatanparvarlik, empatiya va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligining shaxs kamolotiga ta'siri bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Milliy ma'naviyat, ijtimoiy-hissiy ta'lim (SEL), integratsiya, hayotiy ko'nikmalar, komil inson, hissiy intellekt, vatanparvarlik, ma'naviy immunitet, ta'lim-tarbiya.*

Har qanday davlatning qudrati uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki o'sha jamiyat a'zolarining ma'naviy yetukligi va bilim darajasi bilan o'lchanadi. Zero, iqtisodiy barqarorlik ham, siyosiy taraqqiyot ham ilm va tarbiya bilan sug'orilgan tafakkur mahsulidir. Zamonaviy ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va ijtimoiy-hissiy ta'limning uyg'unlashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning "Ta'lim tarbiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Men ta'lim-tarbiya jarayonini shunchaki dars o'tish deb emas, balki shaxsni hayot daryosiga tayyorlash deb bilaman. Bugungi shiddatli zamonda yoshlarga faqat quruq faktlarni o'rgatish yetarli emas. Biz ularning qalbiga milliy g'urur, vatanparvarlik va qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini muhrlashimiz shart. Shundagina ular nafaqat o'z sohasining mutaxassisi, balki mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishadi.

Eng muhimi, men ta'lim-tarbiyani faqat maktab devorlari bilan cheklangan jarayon deb hisoblamayman. Bu — butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Oila, mahalla va ta'lim maskani bir yoqalardan bosh chiqarib harakat qilsagina, biz ko'zlagan yuksak axloqiy va ma'naviy muhitga erisha olamiz. Barkamol avlodni voyaga yetkazish — bu kelajak poydevorini bugundan mustahkamlash demakdir.

Milliy ma'naviyat tarbiyaning asosi bo'lib, bu qadriyatlar o'quvchining "kimligini" belgilaydi. Milliy ma'naviyat - bu bizning ildizimiz, ijtimoiy-hissiy ta'lim esa – bu zamon bilan hamnafas rivojlanishimiz uchun qanotimizdir. Milliy ma'naviyat, ijtimoiy-hissiy ta'lim va hayotiy ko'nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. Milliy ma'naviyat bizning qadim tariximiz, an'analarimiz, odob-axloq me'yorlarimiz va madaniy qadriyatlarimizni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-hissiy ta'lim esa o'quvchilarning o'z hissiyotlarini boshqarish, boshqalar bilan muloqot qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu ikki yo'nalishning birlashishi o'quvchilarda real hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'quvchida "ma'naviy immunitet"ni shakllantirishda milliy qadriyatlar (oilalar, mahalla, vatan) orqali yot madaniyatlarning salbiy ta'siridan himoyalani kerak. Mening nazaramda, insonning ma'naviy dunyosi uning madaniy ildizlari bilan oziqlanadi. Agar bu ildizlar uzilsa, shaxs o'zining tarixiy xotirasini yo'qotadi va "ommaviy madaniyat"ning salbiy to'liqlari ichida g'arq bo'ladi. Men shunga aminmanki, ma'naviy immunitet – bu, zamonaviy yoshlar uchun eng kerakli hayotiy ko'nikmadir. O'z madaniyatini asragan va ardoqlagan insonni hech qachon qadriyatsiz inson deb bo'lmaydi. Zero, madaniyatni sevish – bu, o'z xalqini va o'zligini sevish demakdir.

Ajdodlar merosida (komil inson g'oyasi) orqali axloqiy mezonlarni o'zlashtirish kerak. Komil inson o'zligidan kechib, umum manfaatga xizmat qilishi deb tushunaman. Tariximizga nazar tashlasak, ulug' mutafakkirlarimizning jahonni lol qoldirgan asarlari zamirida faqatgina bilim emas, balki butun insoniyatga bo'lgan cheksiz muhabbat yotganini ko'ramiz. Biz bugun dunyo bilan hamnafas yashar ekanmiz, ajdodlarimiz kabi ochiq fikrlilik va ma'naviy go'zallikni o'zimizda mujassam etishimiz kerak. Zero, yuksak ma'naviyatli shaxslar ko'p bo'lgan jamiyat har qanday inqirozdan omon chiqadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hamмамiz ko'rib, kuzatib turibmiz – bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagani bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda".

Mening shaxsiy kuzatuvlarim shuni ko'rsatadiki, ta'lim-tarbiya samaradorligini faqatgina o'quv dargohi zimmasiga yuklash — xatodir. Men "Oila – Mahalla – Maktab" hamkorligini tarbiyaviy jarayonning poydevori deb hisoblayman. Ushbu institutlarning integratsiyalashuvi o'quvchi uchun yagona tarbiyaviy makonni yaratadi. Bu makonda bola o'zini ham akademik, ham ijtimoiy jihatdan xavfsiz his qiladi va jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanadi. Hamkorlikning mustahkamligi — shaxs kamolotining kafolatidir.

Bugungi ta'lim nafaqat akademik bilim berish, balki o'quvchini hayotning kutilmagan qiyinchiliklariga tayyorlashni maqsad qilmoqda. Integratsiya esa — bu milliy o'zlikni saqlab qolgan holda, global dunyoga moslashuvchan shaxsni shakllantirish formulasi hisoblanadi. Integratsiya yondashuvi ta'limni hayotdan ajratmaslik, balki hayotga tayyorlash tamoyiliga asoslanadi. M.Sodiqov ta'kidlaganidek, milliy tarbiya tizimi nafaqat an'anaviy qadriyatlarni saqlashni, balki ularni zamonaviy hayot talablariga moslashtirishni nazarda tutadi". Milliy qadriyatlarimiz - mehribonlik, hurmat, mehnatsevarlik, mas'uliyat - ijtimoiy-hissiy ta'lim orqali amaliy ko'nikmalarga aylanadi. Masalan, keksalarga hurmat milliy qadriyatimiz bo'lsa, ijtimoiy-hissiy ta'lim orqali bu qadriyat empatiya,

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

hurmatli muloqot va yordam berish ko'nikmalariga aylanadi. Integratsiyaning amaliy natijalarini quydagilarda ko'rishimiz mumkin:

- Muloqot madaniyati: Milliy lutf va zamonaviy muloqot texnikalarining birlashishida.
- Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish: Ma'naviy mezonlar asosida to'g'ri va mas'uliyatli tanlov qilishni o'rganishda.
- Moslashuvchanlik: O'zgaruvchan dunyoda o'zligini yo'qotmagan holda yangiliklarga ochiq bo'lishda ko'rishimiz mumkin.

Integratsiyalashgan yondashuvning samarasini baholashda o'quvchilarning kundalik xatti-harakatlarida milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishini kuzatish, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini baholash, boshqalar bilan muloqotda empatiya va hurmatni ko'rsatishni tekshirish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish ko'nikmasini tahlil qilish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma'naviyatli inson — bu jamiyatning vijdoni, hissiy bilimli inson esa — uning harakatlantiruvchi kuchi demakdir. Ushbu ikki yo'nalishning integratsiyasi o'quvchini nafaqat yaxshi mutaxassis, balki baxtli shaxs bo'lishiga xizmat qiladi. Milliy ma'naviyat va ijtimoiy-hissiy ta'limning integratsiyasi orqali biz nafaqat bilimli, balki axloqli, mas'uliyatli, hayotiy ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalaymiz. Bu yondashuv o'zbek xalqining boy madaniy merosini saqlab qolish bilan birga, zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan shaxslarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Buning uchun tizimli yondashuv, barcha ta'lim ishtirokchilarining faol ishtiroki va doimiy rivojlanish zarur. Yosh avlod tarbiyasi – bu jamiyatning ertangi taraqqiyoti va barqarorligining asosi bo'lib, u ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Farzand kamoloti yo'lida oila, mahalla va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligi uzviy tizim sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori //www.lex.uz
2. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigidan 30.06.2018
3. M.Sodiqov Ma'naviyat asoslari Toshkent: Fan, 2015. B-240